



## LAMIACEAE L. OILASINING XALQ TABOBATDA QO'LLANILADIGAN ISTIQBOLLI TURLARINING HAYOTIY SHAKLLARI, MORFOLOGIYASI VA TARQALISHI

**Sayramov Fayzullo Baratjon o'g'li**

*Farg'ona davlat universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Labguldoshlar (Lamiaceae) oilasi yuksak gulli o'simliklar yoki magnoliyatoifalar (Magnoliophyta) bo'limi, ikki urug'pallalilar yoki magnoliasimonlar (Magnoliopsida) sinfiga mansub, O'zbekiston florasida keng tarqalgan oila hisoblanadi. Labguldoshlar oilasining deyarli hamma vakillari efir moylariga boy, bu moylar bezsimon tuklar va kelib chiqishi jihatidan ularga yaqin turadigan kalta oyoqli epidermal bezsimon tangachalardan chiqadi. Yalpizdoshlarda sut yo'llari, shuningdek, kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar yo`q.*

**Kalit so'zlar:** *labguldoshlar, hayotiy shakillar, tarqalish areali, flora, efir moylari, morfologiyasi.*

### KIRISH

Gulli o'simliklar guruhiga 250000 dan ortiq tur, 533 oila, 13000 turkum o'simliklar kiradi. Labguldoshlar (Lamiaceae) oilasi kattaligi va turlar xilma-xilligi jihatidan Sympetalae lar orasida qoqio'tdoshlar (Asteraceae) va ro'yandoshlar (Rubiaceae) oilasidan keyin uchinchi o'rinda turadi. Bu oilaga Yer sharida 170 ga yaqin turkum va 3400 ga yaqin tur kiradi. Ular asosan o'tlar, yarim butalar va butalar holida o'sadi. Bir qancha belgilariga ko'ra oson ajralib turadi: poyasi to'rt qirrali bo'ladi. Barglari oddiy, qarama-qarshi joylashgan, yonbargi yo`q. Gullari zigomorf, ko'pchiligida ikki lablilar. Otaligi ikki kuchli otaliklardan bo'lib, soni to'rtta, bulardan ko'pincha tashqisi (oldingisi) qolgan ikkita ichkisidan (orqadagisidan) uzunroq. Onaligi bitta, uning yuqorida turadigan to'rt bo'lakli tugunchasi va tuguncha bo'laklari o'rtasi chiqib turadigan (ginobazik) bitta ustunchasi bor. Tumshuqchasi ikkiga ajralgan. Mevalari tuguncha bo'laklarining soniga yarasha bir urug'li, to'rtta yong'oqchaga bo'linadi. Urug'larida endosperm bo'lmaydi yoki kichkina endosperm bo'ladi.

Poyasining yuqori qismida, xar bir barg qo'ltig'idan odatda kichkina simoz to'pgul, gulbandi juda kalta tortgan dixaziy yoki ko'pincha qo'sh gajak chiqadi; barglari qarama-qarshi joy olganligidan soxta mutovkalar hosil bo'ladi, ular o'z navbatida ko'pchilik vakillarda shingilsimon, boshchasimon yoki supurgisimon to'pgul hosil qiladi. Gul kosachabarglari qo'shilib o'sgan, naysimon yoki qo'ng'iroqsimon, besh tishli bo'ladi yoki ba'zilarida (xuddi gultoji singari) ikki labli bo'ladi. Gultoji beshta gulbargdan yuzaga kelgan, ularning pastki qismi bir-biriga qo'shilib o'sib, naycha hosil qiladi, yuqori tomoni esa har xil shaklli ikkita labga – ikkita gulbargdan hosil bo'lgan pastki labga ajralib turadi. Ba'zilarida yuqori lab kuchsiz taraqqiy etadigan



bo'lganidan, masalan, semizak (Ajuga) da yoki yuqori lab pastki labga qo'shilib o'sadigan bo'lganidan, masalan, Teucriumda gultoji bir lablidek bo'lib ko'rinadi. Teucrium da gultojining yuqori labi besh pallalidek bo'lib turadigan pastki labga taqalgan ikki pallaga rosa ajralgan. Ba'zilarida (masalan, yalpizda) yuqori labi kichkina bo'lib, pastki labning pallalariga o'xshab turadi, shunga ko'ra gultoji xuddi aktinomorfdek, to'rt pallalidek bo'lib ko'rinadi. Mavraklar, rozmarin va boshqa ba'zi turkumlarda faqat ikkita otalik bor. Onaligi ikkita meva bargchadan hosil bo'lgan; tugunchasi dastlab ikki uyali bo'ladi, keyinroq ikkita soxta to'siq bilan to'rtta uyaga bo'linadi; har bir uyasida bittadan anatrop urug'kurtagi bor, uning mikropilesi pastga va tashqariga qarab turadi, uning to'rtta uyasi tuguncha govzabondoshlar (Boraginaceae) oilasining vakillarida bo'lganidek do'ppayib turadi, shunga ko'ra tuguncha to'rt bo'lakli (to'rt pallali), ustuncha esa ginabazik bo'lib qoladi. Ko'pchilik vakillarining nektardoni tuguncha atrofidan joy oladi. Chetdan changlanish hasharotlar yordamida yuzaga chiqadi. Gullari proterandrik shaklda joylashgandir.

#### NATIJA VA MUHOKAMA

Bu katta oilaga o't, chala buta va buta o'simliklari kiradi. Poyasi 4 qirrali but shaklida qarama-qarshi joylashdi. Yon barglari bo'lmaydi. Gullari zigomorf, ikki jinsli gultojisi 2 ta tojbargining qo'shilib o'sishidan vujudga kelgan bo'lib, qalpoqsimon yoki yassi shaklda bo'ladi.

Ostki 3 ta tojbargdan vujudga kelgan bo'lib, yotiq xolatda yoki pastga egilib turadi va aksariyat o'simliklarda bu tojbarglarning o'rtadagisi 2 ga ajralgan bo'ladi. Kosachalari beshtishli, barglari qo'shilib o'sgan bo'lib ba'zan ikki labli bo'ladi va lablarning ustki 3 ta tojbargdan, ostkisi 2 ta tojbargdan tuziladi changchilari 4 ta gultoj naychasiga qo'shilib o'sadi vaoldingi 2 tasi keyingi 2 tasiga qaraganda uzunroq bo'ladi. Ba'zan 2 tagina changchi bo'lib qolgan changchilar reduksiyalangan urug'chilari 2 ta mevacha bargdan tuzilgan tugunchali ustki 4 uyalidir. Gullarning bandi juda qisqa bo'lib gullar uchki barglarining qo'ltig'ida oddiy to'pgullarga to'plangan bu kichik to'p gullar esa shingil boshcha yoki ro'vakga o'xshash murakkab to'pgullar hosil qiladi. Gulning changgi tumshuqchasidan oldin yetiladi. Gullar hasharotlar yordamida chetdan changlanadi. Mevalari bir urug'li 4 ta yeng'oqchaga ochiladi. Urug'ida endosperm bo'ladi. Labgullilarning aksari turlari efir moyli o'simliklardir. Labguldoshlar oilasining 200 turkumi va 3500 turi bor. Ular butun yer yuzining deyarli hamma joyida uchraydi va o'rmon, dasht, sahro va tog'larda o'sadi. Gul formulasi  $Sa(5) So(2/3) A4 G(2)$

Evropa bo'rioyog'i-Zyuznik evropeyskiy-Lycopus europaeus L.

Ko'p yillik, o't o'simlik, poyasi tik o'suvchi, balandligi 30-80 sm. Barglari nashtarsimon, bo'laklarga bo'lingan. Gullari o'troq, ko'p sonli, halqasimon bo'lib barg qo'ltig'ida joylashgan. Kosachasi 3-3.5 mm uzunlikda tuklangan, ignasimon tishchali, nayidan uzun. Tojbargi oq, kosachadan bir oz kaltaroq. YONG'oqchasi 1.5 mm uzunlikda.

Iyul-sentyabrda gullab, avgust-oktyabr oylarida urug'i etiladi.



Ariq va soylar qirg'og'idagi zax joylarida o'sadi. Toshkent, Andijon, Farg'ona, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Qoraqolpog'iston respublikasi va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Zarafshon ko'k o'ti (issop)-Issop zeravshanskiy-Hyssopus zeravschanicus (Dubjan.) Pazij.

Ko'p yillik, ko'p sonli poyari bor, shoxlangan, 20-50 sm balandlikda. Barglari nashtarsimon, o'troq, chetlari tekkis. Gullari kalta tutqichli, oz sondagi gullarga ega. Kosachasi rangli, 7-8 mm uzunlikda, mayda tuklangan, uchburchaksimon. Tojbarglari to'q ko'k-binafsha ranglarda, 9-10 mm uzunlikda.

Iyul-avgustda gullab, avgust-sentyabr oylarida urug'i pishadi.

Tog'larning o'rta mintaqadagi quruq toshli yonbag'irlarida o'sadi. Toshkent, Andijon, Samarqand Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

O'rmon quddusi-CHistets lesnoy-Stachys silvatica L.

Ko'p yillik, poyasi to'g'ri o'suvchi, balandligi 1m. Bargi yirik, katta arrasimon tishli, ikki yuzasi siyrak tuklangan, bandli. Gullari siyrak halqasimon bo'lib, gul barglar qo'ltig'ida joylashgan. Kosachasi 8-9mm uzunlikda uchburchak shaklda bo'lib uchki qismi tikanga aylangan. Tojbarglari to'q qo'ng'ir qizil, 14-16 mm uzunlikda, ostki lab tojibargi 1.5 marta uzun tepadagidan.

Iyunda gullaydi.

Tog'larni o'rta mintaqasida butazorlarda o'sadi.Farg'ona viloyatida (chodaksoy) tarqalgan.

Tog' qudusi-CHistets bukvitsetsvetnyy-Betonica officinalis L.

Ko'p yillik, tik o'suvchi, tuklar bilan qoplangan, balandligi 40-100 sm. Barglari lansetsimon, yirik arrasimon tishchali, uzun bandli, poyadagilari o'troq. Gullari boshoqsimon poyani uchida joylashgan. Kosachasi 11-13mm uzunlikda, tuklangan, qiska uchburchaksimon. Toj barglari to'q kizil,16-20 mm uzunlikda.

Iyun-avgustda gullaydi, iyul-sentyabrda urug'lari etiladi.

Butalar orasida, tog'ni o'rta mintaqalarida o'sadi. Toshkent, Namangan viloyatlarida tarqalgan.

Xarifgulli tog'qudusi-CHistets bukvitsetsvetnyy-Stachys betoniciflora Rupr.

Ko'p yillik, poyasi yaxshi rivojlangan, balandligi 40-100sm. Barglari uzunchoq nashtarsimon, yirik arrasimon tishchali. Gullari boshoqsimon to'pgullarda joylashgan.Kosachasi 11-13mm uzunlikda, tuklangan.Tojbarglari qizil 16-20mm uzunlikda momiq tuklangan, naychani ustki tomoni tuksiz.

Iyun-avgust oylarida gullab, iyun-sentyabrda urug'lari etiladi.

Tog'larni o'rta mintaqasidagi butazorlarda o'sadi.Toshkent viloyatida tarqalgan.

Jeneva ayugasi-Jivuchka jenevskaya-Ajuga genevensis L.

Ko'p yillik, poyasini balandligi 25 sm. Bargi teskari uzunroq lansetsimon, yirik tishchali, osti tuksiz, ust tomoni siyrak tuklangan. Gullari halqasimon to'pgullar hosil kiladi. Kosachasi kung'iroqsimon, ko'k rang 7 mm uzunlikda. Tojbarglari xovorang 15 mm uzunlikda tashqi tomoni tuklangan.



May oyida gullab urug'laydi.

Toshkent viloyatini dalalaridan tarqalgan.

Komarov tog'bo'znochi (ajdarbosh)-Zmeegolovnik komarova-Dracocephalum Komarovii Lipsky.

Ko'p yillik, poyalari ko'p sonli, asos qismi yo'g'onlashgan, balandligi 10-20 sm. Barglari uchburchaksimon, asosan yuraksimon, chetlari tekkis, kalta bandli. Gullari yuqori qismidan kichraygan, barglar qo'ltig'idan bittadan hosil bo'ladi, kalta tutqichli. Kosachasi 10-11mm uzunlikda binafsha rangda, ikki labli, mayda burmali, uch tishchali. Tojibarglari ko'rinishi, tashqi tomondan momiq tuklar bilan qoplangan, 20-22mm uzunlikda. YOng'oqchasi nashtarsimon uzunchoq uch qirrali, tekkis, 3mm uzunlikda.

Iyul-avgust oylarida gullab, avgust-sentyabrda urug'lari etiladi.

Tog'larni yuqori qismidagi toshli joylarda o'sadi. Toshkent, viloyati (Oxongaron daryosini yuqori qismida) tarqalgan.

Yovvoyi jodvar- Eremostachys nuda Regel.

Ko'p yillik, ildizi yo'g'on turupsimon ayrim hollarda shoxlangan. Payasi tik o'suvchi, oddiy mo'tloq tuksiz, balandligi 50-60 sm. Barglari rombik shaklida bo'lib mayda, qirrilgan, ostki barglari kalta bandli, pastdagilar 1-2 juftdan, o'troq. Gullari o'troq, kam gulli, xalqalarda joylashgan. Koasachasi 12-15 mm uzunlikda, naychasimon kalta tishchali, 1-1,5 mm uzunlikda. Tojibarglari 22-25 mm uzunlikda, oq, ostki labi sariq, tashqi tomoni momiq tuklangan. YOng'og'i tuksiz,

May-iyunda gullab, iyun-iyulda etiladi.

Tog'ni yonbag'irlarni o'rta mintaqalarida o'sadi. Andijon viloyatida tarqalgan.

Qatortishli devortagi o'ti-SHandra ocherednozubchataya-Marrubium alternidens Rech.

Ko'p yillik, ko'p sonli poyali, kam shoxlanandigan dag'al tuklangan, balandligi 30-80 sm. Barglari yumaloq uzun bandli, tishchali-egatchali. Gullari ko'p sonli bo'lib halqasimon joylashgan kosachasi 9-11 mm uzunlikda, yulduzsimon tuklari bilan qoplangan. Toj barglari oq, tashqi tomoni yulduzsimon tuklar egalangan, uzunligi 9-11 mm, bargi ikki bo'lakli qirrilgan. YOng'oqchasi uch qirrali tuxumsimon, 1,5 mm uzunlikda.

May-sentyabr oylarida gullab urug'laydi.

Begona o't sifatida bog'larda, ekinzorlar chetida va tashlandiq erlarda o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Dorivor limono't-Melissa lekarstvennaya-Melissa officinalis L.

Ko'p yillik, poyasi tik, asosidan shoxlanuvchan, qalin dag'al bezlar va tuklar bilan qoplangan, limon singari hidga ega, 30-60 sm balanlikdagi o't o'simlik. Barglari tuxumsimon, chetlari yirik tishchali, ostki tomoni tuksiz, ust tomoni siyrak kalta tuklangan. Gullari uzun tutqichli, halqasimon joylashgan. Kosachasi 7-8 mm uzunlikda, uzun tolali tuklarga ega. Tojibarglari oq, tashqi tomoni biroz tuklangan, 13-14 mm uzunlikda. YOng'oqchasi uch qirrali, to'q-qo'ng'ir 1.7 mm uzunlikda.



Iyun-avgust oylarida gullab, iyul-sentyabr oylarida urug'i etiladi.

Tog'larni o'rta mintaqalarida, qoyalar, soyalarda o'sadi.

Toshkent, Qashqadaryo, Farg'ona, Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Qalampir yalpiz-Myata perechnaya-Mentba piperita L.

Ko'p yillik, balandligi 30-40 sm, poyalari oddiy kam shoxlangan. Barglari uzun nashtarsimon, uchi uchli, qisqa bandli, tishchalari arrasimon. Gullari poya va shoxchalar uchida boshhoqsimon to'pgul hosil ilyadi. Kosachasi binafsha, tuksiz, uch burchakli, uchli kipriksimon tishchali. Tojbarglari pushti-ko'kish 3-4 mm uzunlikda. CHangchilari tojbarglardan qisqa.

Iyun-avgust oylarida gullaydi.

Kam hollarda ariqlar qirg'og'ida o'sadi. Toshkent viloyatida tarqalgan.

Dala yalpizi (suv yalpizi)-Myata polevaya-Mentha arvensis L.

Ko'p yillik, poyasi tik o'suvchi, asosidan shoxlanuvchi, poyasi to'rt qirrali, 25-50 sm balandlikdagi o't o'simlik. Barglari uzunchoq nashtarsimon, qalin, kalta tuklar bilan qoplangan. Gullari shoxlar va poyani uchida boshhoqsimon to'p gullar hosil qiladi. Kosachasi 2.5 mm uzunlikda uch qirrali o'tkir tishchali. Tojbarglari pushti-binafsha rangda, 4-5 mm uzunlikda.

Iyul-avgustda gullab, avgust-sentyabrda urug'lari etiladi.

Tekkisliklarda va tog' oldi tumanlarida ariq va suv havzalarida qirg'og'ida, zax erlarda o'sadi. Toshkent, Farg'ona viloyatlarida tarqalgan.

Osiyo suv yalpizi (cho'l yalpiz)-Myata aziatskaya-Mentha asiatica Boriss. (M. longifolia)

Ko'p yillik, poyasi tik o'suvchi, ser shox qalin tuklangan, balandligi 60-100 sm. Barglari nashtarsimon, o'troq, xar ikki tomoni tuklangan. Gullari qisqa tutqichli bo'lib, poya uchida boshhoqsimon to'p gullar hosil qiladi. Kosachasi qalin tuklangan 2-2,5-(3) mm uzunlikda, ensiz uchburchak, uchki qismi tishchali. Tojbarglari ochiq-binafsha rangda va uzunligi 3-4 mm.

Iyun-avgust oylarida gullab, iyul-sentyabrda urug'i etiladi.

Tog'larni o'rta mintaqasigacha, nam erlar, ariqlar, buloqlar atrofida o'sadi. Toshkent, Andijon, Farg'ona, Samarqand, Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Mushuk zufo-Kotovnik koshachiy-Nepeta cataria L.

Ko'p yillik, poyalari yo'g'on, sershox, balandligi 60-80 sm. Barglari uchburchakli, teskari tuxumsimon, asosi yuraksimon, yirik tishchali, yuzasi tuksiz, ostki tomoni siyrak tukli. Gullari siyrak, ko'p sonli, yarim soyabonsimon, to'pgul hosil qiladi. Gul tutqichlari 5-10 mm uzunlikda, gul yon barglari juda mayda, nashtarsimon ignaga o'xshash tuklangan. Kosachasi 5-6 mm uzunlikda, kulrang momiqli. Tojibarglari och havorang yoki ko'k ayrim hollarda oq, 7-8 mm uzunlikda. YOng'oqchasi ellipsisimon, qo'ng'ir rangda, tekkis 1,5 mm uzunlikda,

Iyun-iyul oylarida gullaydi, iyul-avgustda urug'laydi.



Tog'larni o'rta mintaqasigacha begona o't sifatida o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Surxondaryo viloyatlarida va Qoraqalpog'istonda tarqalgan.

Mayda gulli tog' rayhoni-Dushitsa melkotsvetnaya-Origanum tytthanthum Jontseh.

Ko'p yillik, poyasi tik o'suvchi, ko'p sonli, yuqori qismidan shoxlanuvchi balandligi 30-60 sm. Bargi tuxumsimon yoki uzunchoqroq, to'mtoq asosi ponasimon chetlari tekkis, yuzasi tuksiz. Gullari o'troq boshosqsimon yarim soyabonsimon qalqonsimon to'pgullarga to'plangan. Kosachasi 3 mm uzunlikda kalta tuklangan. Toj bargi och ko'kish-pushti 5 mm uzunlikda. YOng'oqchasi to'q-qo'ng'ir 0,75 mm uzunlikda

Iyul-avgust oylarida gullab iyul-sentyabr oyida urug'lari etiladi.

Tog'larni o'rta va pastki mintaqalaridagi toshli-shag'alli joylarida o'sadi. Toshkent, Andijon, Farg'ona, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Muxallis barg qisraq (xapri)-Perovskiya norichnikolistnaya-Perovskia serophulariifolia Bunge

Ko'p yillik, yo'g'onlashuvchan poyali, qo'ng'ir qobiqli chala buta, balandligi 60-120 sm. Barglari uzunchoq yoki tuxumsimon, to'ntoq tishchali, Gullari kalta tutqichli kam gulli, halqasimonga o'xshash joylashgan shingili to'pgul hosil qiladi. Kosachasini uzunligi 5-6 mm, binafsha rangli, barcha qismi uzun tuklar bilan qoplangan. Tojibarglari binafsha rangda, uzunligi 11-12 mm, siyrak momiq.

Iyun-iyulda gullab, iyul-avgust oylarida etiladi.

Tog'larni pastki mintaqalaridagi suyurma toshlar, shag'alli joylarda o'sadi. Farg'ona, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Sigirquyruqsimon qo'ziquloq-Zopnik korovyakovidnyy-Phlomis thapsoides Bunge

Ko'p yillik, ko'p sonli poyali, tik o'suvchi, shoxlangan, yulduzsimon momiq tuklar bilan qoplangan, balandligi 30-50 sm. Barglari keng tuxumsimon, ostki barglari bandli yuqoridagilari qisqa bandli, yuza va ostki qismlari ham yulduzsimon tuklar bilan qoplangan. Gullari yuqoridagi gul barglarini qo'ltig'ida 2-6 tadan joylashgan. Kosachasi 12-14 mm uzunlikda, qalin yulduzli tuklar bilan qoplangan, qobirg'ali, 0,5-2 mm uzunlikdagi kalta tikansimon tishchali, tojibarglari pushti-ko'k rangda.

Iyun-iyul oylarida gullab, iyul-avgust oylarida urug'lari etiladi.

Tog' oldi yaylovlarida asosiy landshaft o'simligi sifatida o'sadi. Samarqand, Surxandaryo, viloyatlarining g'arbiy qismlarida tarqalgan.

Oddiy ustixudus-CHernogolovka obyknovennaya-Prunella vulgaris L.

Ko'p yillik, poyasi tik o'suvchi yuqori qismidan shoxlanuvchi 10-40 sm balandlikdagi o't o'simlik. Barglari uzunchoq tuxumsimon, chetlari tekkis, to'q yashil, tuksiz. Gullari kalta tutqichli, zich boshosqsimon gul to'plamiga ega. Kosachasi 5-6 mm, urug'laydi, binafsha rangda. Tojibarglari oqish, binafsha dog'lari bor. Tuksiz, 9-10 mm uzunlikda. YOng'oqchasi ellipsisimon uch qirrali tuksiz, tekkis, ochiq-qo'ng'ir, 2mm uzunlikda.

Iyul-avgust oylarida gullab, avgust-sentyabr oylarida urug'i etiladi.



Tog' oldi va yuqori tog' mintaqalaridagi nam joylarda o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand, va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Bozulbang-Zayachya guba gipsovaya-Lagochilus gupsaceus Vved.

Ko'p yillik, poyasining balandligi (15) 30-40 sm, ko'p sonli poyali, poyasi oqish-kulrang, tuklar bilan qoplangan. Barglari lopatkasimon, chetlari tishchali yoki bo'laklarga bo'lingan. Gullari o'troq, 4-6 tadan barg qo'ltig'ida joylashgan. Kosachasi ingichka qo'ng'iroqsimon, uchlari tikansimon tishchali, 12-18 mm uzunlikda. Toj barglari oq yoki pushti 20-25 mm uzunlikda. YOng'oqchasi tuksiz, 4-5 mm uzunlikda.

May-avgust oylarida gullab, iyun-avgust oylarida urug'lari etiladi.

Tog' oldi tumanlarida, qo'ng'ir tuproqli joylarda o'sadi. Surxondaryo viloyati (Guzar va SHERobod oralig'ida) tarqalgan.

Dag'al tukli bozilbang-Zayachya guba jestkovolosistaya-Lagochilus hirsutissimus Vved.

Ko'p yillik, poyalari yog'ochlanuvchi, tik o'suvchi, kam shoxlanuvchi, balandligi (10)-15-30 sm. Barglari rombik tuxumsimon, chuqur o'yilgan, uchki qismi tuklangan. Gullari barg qo'ltig'ida 4-8 tadan o'troq joylashgan. Kosachasi qo'ng'iroqsimon, uchlari tikansimon uchli, ostki kosachasi 20-25 mm uzunlikda. Toj barglari oq unda qo'ng'ir nurlari bor, uzunligi 25-27 mm

Iyun-iyul oylarida gullaydi.

Tog' oldi tumanlarida shag'alli-mayda tuproqli joylarda o'sadi. Farg'ona viloyatini (Qurama tizmasini) tog' oldida tarqalgan.

Gangituvchi bozilbang (Bangi devona)-Zayachya guba opyanyayushaya-Lagochilus inebrians Bunge.

Ko'p yillik, poyasi yog'ochlanuvchan, shoxlangan, gorizantal tuklar bilan qoplangan, yaltiroq oq qobiqli, balandligi (20)-30-40-(60) sm. Barglari tuxumsimon-rombik, bo'laklarga bo'lingan, tuklar bilan qoplangan. Gullari o'troq, 4-6 tadan yuqoridagi barglar qo'ltig'idan o'rin olgan. Kosachasi ingichka qo'ng'iroqsimon, uchi tikanli, 15-23 mm uzunlikda. Toj bargi oq yoki pushti, qo'ng'irsimon dog'lari bor, 20-28 mm uzunlikda. YOng'og'i tuksiz, 4-5 mm uzunlikda.

Iyun-avgustda gullab, iyul-sentyabrda urug'lari etiladi.

Tog' oldi tumanlarda toshli-shag'alli tuproqlarda o'sadi. Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Karimov V., Shomahmudov A. Xalq tabobati va zamonaviy ilmi tibda qollaniladigan shifobaxsh osimliklar. Toshkent, 1993.
2. Kursanov A. I. vaboshqalar. Botanika 2-tom –Toshkent, 1963.
3. Mustafoyev.S.M. Botanika –Toshkent, 2002.



4. NabiyeV.M. Botanika atlas-lug'ati. —Toshkent, 1969.
5. Xoliqov.S.X. va boshqalar. Farg'ona vodiysining O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan o'simlik va hayvonlari.
6. Oripov.R.O, Xalilov.N.X. Osimlikshunoslik –Toshkent, 2007.
7. PratoV O.P., NabiyeV.M.M. Ozbekiston yuksak o'simliklarning zamonaviy tizimi Toshkent, 2007.
8. Xamidov.G`. O'zbekistonning foydali o'simliklarini muxofaza etish –Toshkent, 1990.
9. Xoliqov.S, PratoV.O`. O'simliklar aniqlagichi –Toshkent, 1970.
10. Xolmatov.X.X. va boshqalar. O'zbekistonning shifobaxsh o'simliklari –Toshkent, 1991.
11. V.Maxmudov, A.Maxmudov. Dorivor o'simliklar flora va sistematikasi. Toshkent. "Fan" nashriyoti, 2022.
12. Yusupova, Z. A., & Baratjon ogli, S. F. (2022). LABGULDOSHLAR OILASI VAKILLARINING HAYOTIY SHAKLLARI, MORFOLOGIYASI VA TARQALISHI. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(24), 472-479.
13. Yusupova, Z. A., & Baratjon o'g'li, S. F. (2022). LAMIACEAE OILASINING EFIR MOYIGA BOY BO'LGAN BAZI TURLARINING MORFOLOGIYASI. Scientific Impulse, 1(2), 692-695.
14. Yusupova, Z. A., & Baratjon ogli, S. F. (2022). NATURAL MEDICINAL HERBS OF THE LAMIACEAE FAMILY AND THEIR MEDICAL PROPERTIES. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 5(4), 64-68.
15. Yusupova, Z. A., & Baratjon ogli, S. F. (2022). FEATURES OF THE GENUS LAMIACEAE FAMILY, WHICH WE KNOW AND DO NOT KNOW ABOUT. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(23), 87-90.